

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

YURIDIK FANLAR

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI

Xursanov Shamsiddin Allamurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti o'q'ituvchisi

Email: shamsiddincouncil@gmail.com

Tel: +998 93 766 16 30

Annotatsiya. Xalqaro darajadagi nizolarni hal etishning usullaridan biri bu arbitraj usulidir. Bu usulning eng muhim tomonlaridan biri bu nizolarni hal etishda qo'llaniladigan qonun-qoidalaridir. Chunki, dunyodagi turli xalqlar turlicha qonunchilik tizmlariga ega shu sababli, har bir davlat tomonidan qabul qilinadigan qonun-qoida ishlab chiqish yoki hamma uchun bir xil qoidani belgilash jiddiy vazifalardan hisoblanadi. Ayni shu jarayon bilan bog'liq amaliyot arab davlatlarida qanday o'z aksini topganligi hamda bu davlatlar qonunchiligi Shariat qoidalariga asoslanganligi sababli, bu qoidalar bugungi zamonaviy arbitraj qoidalari bilan birga nizolarni hal etishda qanday ahamiyat kasb etayotganligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Shariat, Islom, arbitraj, mazhab.

THE SHARIA FACTOR IN INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION

Khursanov Shamsiddin Allamurod ugli

Teacher of Tashkent State Law University

Annotation One of the ways to resolve disputes at the international level is the arbitration method. One of the most important aspects of this method is the rules used in resolving disputes. Because different nations of the world have different legal systems, it is a serious task to develop a law to be adopted by each country or to establish the same rule for everyone. How the practice related to this process is reflected in the Arab countries, and since the legislation of these countries is based on the rules of Sharia, we will consider how these rules, together with the rules of modern arbitration, are important in resolving disputes.

Keywords: Sharia, Islam, arbitration, mazhab.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n07>

Kirish. Rivojlanib borayotgan bugungi kunda, insonlar, davlatlar va tashkilotlar o'rtasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar ham murakkablashib bormoqda. Ayni shu subyektlar o'rtasida turli nizolarning paydo bo'lishi bu munosabatlarni yanada murakkablashtiradi. Garchi shunday bo'lsada, bu nizolarni hal etishning ko'plab muqobil turlarining paydo bo'lishi masalani bir muncha osonlashtiradi.

Arab davlatlarida dastlab nizoni hal etishning eng qulay yo'li sifatida barcha arab davlatlarida mavjud bo'lgan Islom dini qoidalari asosida hal etish eng to'g'iri va samarali yo'l hisoblangan. Chunki, bu davlatlar aholisi sig'inadigan Islom dini qonunchiligi eng mukammal normalaga ega deb hisoblashgan va hozir ham shunday deb hisoblashadi.

Hozirgi kunda g'arb davlatlarida xalqaro xususiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni hal etishda muqobil usul sifatida qo'llanilayotgan arbitraj arab davlatlarida ancha yillik tarixga ega usul sifatida shakllanib ulgiran edi. Negaki, nizolarni hal etishda ikki tarafni murosaga keltirib, ular uchun bajarishi majburiy bo'lgan kelishuviga erishish tartiboti musulmon davlatlarga islom dini bilan birga kirib kelganligini ta'kidlashadi. Ba'zi

manbaalarda esa arbitraj (takhim) islom dini kirib kelishidan oldin ham mavjud bo'lgan deya qayd etiladi. U vaqtda arbitrajda asosan, mulk, vorislik va boshqa huquqbuzarliklar mavjud bo'lgan nizolashayotgan taraflar o'rtaga hakam yollashganligi haqida ma'lumotlar uchraydi [3;2].

Ammo, yana boshqa bir olim *Gary Bornga* ko'ra Islom dinidan oldin qo'llanilgan arbitraj amaliyoti bu shunchaki ko'ngilli tarzda bo'lganligini hamda bu amaliyot oxirida qabul qilingan kelishuv yoki qaror taraflar uchun majburiy xarakter kasb etmagan[1;2].

G'arb davlatlari tomonidan ilgari surilayotgan arbitraj amaliyoti arab davlatlarining xalqaro munosabatlarda keng rol o'ynab boshlashi bilan, bu davlatlarga ham kirib keldi. Ushbu davlatlar oldida endi zamonaviy arbitraj qoidalari bilan ular qonunchiligining asosiy manbayi hisoblangan shariat qoidalarini bir-biriga moslashtirish yoki biridan ikkinchisini ustun qo'yish kabi muammoli vaziyat yuzaga kelib qoldi.

Buning asosiy sabablaridan deb quyidagilarni keltirish mumkin. Bugungi kunda arab davlatlarining xalqaro savdoda muhim ahamiyat kasb etishi hamda jahon hamjamiyatining ko'plab davlatlari bilan aloqa o'rnatganligidir. Qisqa qilib aytganda, oldingi arab davlatlaridan farqli o'laroq, hozirgi kundagi arab davlatlari dunyo bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Bu bog'liqlik ko'plab sohalarini o'z ichiga oladi, masalan, *savdo-sotiq, siyosat, xavfsizlik, sport* shu kabilar misol bo'la oladi.

Bu kabi keng sohalarida hamkorlik qilish odatda turli muammolar keltirib chiqaradi va ularni bartaraf etish uchun nizolarni hal etishning bir nechta turlaridan foydalanishadi. Nizolarni hal etishning eng ommabop usuli sifatida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek arbitraj sudlari tan olingan bo'lib, hozirgi kunda arab davlatlari tomonidan ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, buni *Dubay Xalqaro Arbitraj Markazining* tashkil etilishi, *Saudiya Arabistonida* ham xalqaro tijorat arbitraji to'g'irisida yangi qonunchilik hujjatlarining qabulinishi va ko'plab arab davlatlari tomonidan arbitraj faoliyatini tartibga soluvchi reglamentlar qabul qilingani bilan izohlash mumkin.

Asosiy qism. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vaziyatda arab davlatlari arbitraj qoidalari bilan Shariat qoidalari o'rtasida qanday qilib mo'tadillikni saqlab qolganligi haqida so'z yuritamiz. Dastlab, Shariat qoidalari qanday yuzaga kelganligi, bu qoidalarining asoslari tarkibi nimalardan tashkil topganligi hamda arbitraj qoidalarining shariat qoidalari o'rtasida qanday o'xshashlik va farqli jihatlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilamiz.

Avvalo, Shariat o'zi nima ekanligini anglab olishimiz darkor. "*Shariat* - to'g'ri yo'l; ostona va suv ichish joyi, diniy hukmlar majmui; har bir samoviy dinning barcha axloqiy, e'tiqodiy va huquqiy normalari majmui"[4;1]. Demak, Shariat bu qonunlar majmui bo'lib, insonlarni to'g'iri yo'lga undovchi normalar yig'indisi deba hsioblasak ham bo'lar ekan. Shariat qoidalarining asosiy manbaalari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, biz birinchi bo'lib musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan *Qur'on Karimni* Shariat qoidalarining eng asosiy kitobi sifatida keltiramiz. Ikkinchi o'rinda esa Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallamning *hadislari* turadi. Uchinchi o'rinda esa *ijmo* ya'ni, islom huquqi ulamolari tomonidan biror masala bo'yicha o'zaro kelishuvdir. Oxirgi o'rinda esa *qiyos* hisoblanib, Shariat manbalarining bu turi Shariat qoidalarining analogini biror masalada qo'llashdir[3;1].

Yuqorida qayd etilgan manbaalarni amaliy jihatdan qo'llashda islom dunyosida bugungi zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak to'rttda huquq maktabi mavjud bo'lib, bu Islom dinida "mazhab" deb yuritiladi. Ularga Hanafiy, Molikiy, Shofeiyy, Hanbaliy kabi mazhablar

kiradi [3;1].

Ushbu atamaning mazmunini quyidagicha tushunish mumkin bo'ladi. Ya'ni, *“Mazhab”* so'zi *arab tilidan* olingan bo'lib lug'atda *yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot* demakdir"[4;1]. Ushbu ma'lumotni keltirishdan maqsad, Islom dinida Shariat qoidalarini nizolarni hal etishda qo'llash uslublari bir-biridan farq qilishi alohida ta'kidlashdan iboratdir. Masalan, *Hanafiy, Molikiy, Hanbaliy* mazhab vakillari nizo mavjud bo'lgan hududda qozixona (sud) mavjud bo'lsa ham, arbitrajni nizolarni hal etishning boshqa usuli sifatida qo'llashga ruxsat beradi. Chunki, Quro'ni Karimda ham oilaviy nizo kelib chiqqan vaqtda ikki tarafda vakil kelib nizoni hal etishga undovchi oyat mavjudligini hamda Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam ham yahudiy qabilalar bilan muzokara o'tkazib, o'rtadagi mavjud nizoni hal etishganini alohida keltiradilar.

Ammo, *Shofei* mazhabiga ko'ra arbitr bu haqiqiy faqih (yurist) deb qaraladi. Shu sababli nizo mavjud hududda haqiqiy faqih ya'ni hududning qozisi bo'lsa nizoni aynan shu qozi hal etishi kerk degan g'oyani ilgari surishadi. Batafsilroq aytganda, bu mazhab vakillari qozi bo'lsa arbitrga muhtojlik yo'q degan fikrni ko'taradilar.

Endi esa bevosita arbitraj va Sharit qoidalarining bir-biriga o'xshashlik taraflarini ko'rib chiqamiz. Bularga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

1. mustaqillilik;
2. erkin kelishuv huquqi;
3. qarorlarning majburiyligi[1;1].

Ko'rib turibmizki, Shariat va arbitraj qoidalari o'rtasida ba'zi o'xshashlikni uchratish mumkin. Shu sababli, bugungi kunda arab davlatlarida tashkil etilgan arbitraj markzalari islom huquqini tan oladi. Shuningdek, arbitraj markazlarining chiqargan qarorlari Shariat qoidalariga zid bo'lmasligi kerakligini belgilab qo'yilgan.

Islom huquqi asosida barcha arbitraj nizolarini hal etish uchun butun arab davlatlari bilan birgalikda musulmon davlatlar ham birgalikda harakat qilishi kerak bo'ladigan muhim vazifa sanaladi. Uni kengroq yoyish uchun albatta turli muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bu qismda aynan shu muammolar va ularga qaratilgan yechimlar haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Dastlab, islom huquq oilasining keng fodalanishida nima to'siq bo'lib turganligini aniqlab olish zarur bo'ladi. Bu haqida turli tadqiqotchi olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida fikrlar bildirib o'tishgan. Masalan, *professor Maria Bhatti* o'zining *“Islom huquqi va xalqaro tijorat arbitraji”* kitobida birinchi muammolardan biri islom huquqini chuqur biladigan hamda tijorat arbitrajida qo'llay oladigan darajada ko'nikmaga ega kadrlarning yetishmasligi deb keltiradi. Ya'ni, arbitraj sohasini yaxshi biladigan uni Sharait qoidalari bilan bog'lay oladigan kadrlar haqiqatan kamchillikni tashkil etadi bu esa Islom huquqining keng yoyilishida o'ziga xos to'siq bo'lib turibdi.

Lekin, shuni alohida qayd etish kerakki, Shariat qoidalariga asoslangan arbitraj markazlarni tayyorlash, yoki kadrlarni shakllantirish uchun xalqaro miqyosda talab bormi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu haqida ham turli olimlar o'zlarining fikrlarini quyidagicha bayon qilishgan. Masalan, *Osiyo Xalqaro Arbitraj Markazi (AIAC)* direktori *M. Raju (Rajoo)* *“Islom dunyosi hali xalqaro tijorat arbitraji sohasini to'liq kashf etib ulgirmadi. Islom huquqini arbitrajda qo'llashga vijdonan yondashsak, ko'pchilik biznes sohasi vakillari bunday qilishni xush ko'rishmaydi”* deya fikr bildiradi [1;2]. Bu fikrga qisman qo'shilish mumkin. Chunki,

yangi metdoni taklif qilish yoki uni keng yoyish uchun avvalgisini yaxshi bilish va oldin mavjud bo'lmagan xizmatlar taqdim qilish lozim deb o'ylayman.

Ketingi muammo sifatida esa Shariat qoidalarining arbitraj qoidalariga nisbatan o'zaro farqli jihatlari deb keltirish mumkin. Avvalo, Shariat qoidalariga asoslangan arbitraj sudlari foizga asoslangan moliyaviy nizolarni ko'rmaydi va bu shariat qoidalariga nisbatan zid deb hisoblaydi. Undan tashqari arbitraj qoidalarida guvohlarning ishtiroki doim ham ikkala taraf tomonidan qabul qilinavermaydi. Ammo, Shariat qoidalarining aksariyatida guvoh keltirishni ham nazarda tutadi. Yoki, ayol va erkak kishilarning guvohlik darajalari yoki ularga qo'yiladigan talablar ham har xil tarzda belgilangan. Shu sababli, xalqaro miqyosda musulmon davlati bo'lmagan davlat bilan musulmon davlati subyektlari o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni arbitraj sudida hal etishda ikki tarafda turli qo'llaniluvchi huquq yuzaga kelishi mumkin. Bu esa ikki huquq tarmog'ining zid kelib qolishiga olib keladi.

Bundan tashqari yuqorida sanab o'tgan Islom dinidagi huquq maktablaridan *Molikiy*, *Shofe'iy* hamda Hanbaliy mazhablari ayol kishining arbitr bo'lishiga qarshi fikr yuritadilar. Ammo, *Hanafi* huquq maktabi vakillari esa ayollarning bunday lavozimda bo'lishlariga qarshi emaslar. Xususan, ular xalifa *Umar roziyallohu anhu* davrida *Al-Shifa* ismli ayol kishi bozorda mahsulotlarning sifati va ularning xavfsizligiga xalifa tomonidan mas'ul qilib tayinlanganini asos qilib ko'rsatadilar. Shariat qoidalariga ko'ra ham ayol kishi mediatsiya va muzokaralar orqali kelishuvga erishishda ishtirok etishiga qarshi emasligi ayon bo'ladi[3;1]. Shu sababli ham bugungi kunda ayol arbitrlarni ham ko'rish mumkin masalan, Dubay Xalqaro Arbitraj Markazida (DIAC) ayol arbitrlar ham faoliyat yuritadi.

Undan tashqari yana bir muammoli vaziyat bu Shariat qoidalarini arbitrajda qo'llash bilan bog'liq bo'lib turli tadqiqot natijalariga ko'ra hali Shariat qoidalarini boshqa musulmon bo'lmagan davlatlarga tushuntirib, uning mohiatini ochib berishva ularni bu sohaga qiziqtirish kabi vazifalar ko'pligidir. Ya'ni, arbitrajdan foydalanish uchun Shariat qoidalarini ham muakammal tarzda o'rganib chiqish kerak deydi Maria Karagian o'zining maqolasida[3;2].

Shariat qoidalarida hozirgi mavjud bo'lgan arbitraj markazlarida protsessual tartibni belgilashga doir qoidalar ham muammo chiqarishi mumkin. Chunki, Shariat qoidalari asosan moddiy huquqlarni belgilashga qaratilgan. Shu sababli arbitraj protsessini olib borish Shariat qoidalariga asoslangan arbitraj markazlariga uchun qiyinchilik tug'dirishi tabiiy albatta.

Protsessual qoidalarni belgilovchi asosiy xalqaro hujjatlar ham mavjud bo'lib, ularning ham bir nechta turlari bor. Masalan, 1958 yilning 10 iyunida imzolangan "Chet el mamlakatlari hakamlik qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risida"gi Nyu-York Konvensiyasi o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra dunyo miqyosidagi me'yoriy – huquqiy hujjat hisoblanib, unga a'zo bo'lish istagini bildirgan davlatlar uchun ochiq Konvensiya hisoblanadi[1;4].

Keyingi o'rinda esa UNICITRAL namunaviy reglamenti turadi. Bu namunaviy reglamentdan ham ko'pchilik arab davlatlari tajriba olishgan. Livan 1983 yilda arbitrajni qabul qildi va bu qoidalar 1981-yildagi shunga o'xshash fransuz qonunchiligidan ilhomlangan qoidalar edi. 1993-yilda Jazoir 1981-yildagi fransuz arbitraj qonuni va Shveytsariya qonunlaridan namuna olishgan. Bundan tashqari Saudiya Arabistoni ham 2012-yildagi arbitraj qonuni ham UNICITRAL asosida qabul qilgan[3;2]

Xulosa. Butun dunyo bo'ylab xalqaro darajadagi tijorat nizolarini hal etishda eng yaxshi hamda samarali usul hisoblangan arbitraj sudida musulmon davlatlar uchun mos keladigan Shariat qoidalarini kiritish bu usulning yanada samaraliroq bo'lishiga xizmat qiladi

deb o'ylayman. Ammo, bu yo'lda turli-xil muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bu kabi muammolarga avvalo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek kadrlar muammosini misol qilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bu muammoni hal etish uchun arbitraj sohasida yetakchi bo'lgan davlatlar maxsus programma ishlab chiqqan holda kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

Shariat qoidalariga asoslangan arbitraj markazlarini tashkil etish va hozirgi vaqtda faoliyat yuritayotgan arbitraj markazlari tomonidan taqdim etilmagan yangi funktsiya va takliflar bilan chiqish orqali bu turdagi arbitraj markazlarining keng yoyilishga xizmat iladi. Masalan, arbitraj to'lovlari, muammolarni tez va samarali hal etish orqali yoki nizolarni birlashtirish kabi takliflar bilan chiqishi bu muammoga o'ziga xos yechim berishi mumkin.

Arbitrlarga qo'yiladigan talablarni qo'yishda menimcha Hanafiy huquq maktabi qarashlaridan kelib chiqqan holda talab qilish zarur va bu turli-xil nizolarni oldini olishga xizmat qiladi. Jamiyatda har bir shaxsga teng imkoniyatlar yaratishdan hamma manfaatdor bo'lishi kerak. Bundan tashqari protsessual qoidalarni belgilashda bu sohada yetakchi davlatlar tajribasini o'rganish ko'proq foyda keltirishi mumkin. Masalan, Arbitraj markazlarining protsessual reglamentlarini ishlab chiqishda Nyu York konvensiyasi yoki UNICITRAL qoidalariniga asoslanib belgilash ko'plab davlat bilan bu borada o'zaro kelishuvga erishishga ko'maklashadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Margaret L. Mozes. Chikago huquq maktabi Loyola universiteti. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Uchinchi nashr. "Lesson press" MChJ nashriyoti, 2020. 501b.
2. Maria Bhatti. Islamic law and International Commercial Arbitration. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. 2019. 285p.
3. Gary Born. International Commercial Arbitration (Second Edition), 2nd edition (© Kluwer Law International; Kluwer Law International. 2014. 3640p.
4. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. Xalqaro tijorat arbitrajlarining huquqiy asoslari va faoliyati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. Monografiya. // Mualliflar jamoasi. / – T.: TDYUU, 2020. – 195 b
5. United Nations Commission on International Trade Law. UNICITRAL Arbitration Rules. 2021. Available at https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/21-07996_expedited-arbitration-e-ebook.pdf (14.10.2024. 11:04)
6. Essam A. Alsheikh "Distinction between the Concepts Mediation, Conciliation, Suib and Arbitration in Shari'ah Law" Arab Law Quarterly 25 (2011) 367-400 p. Available at <https://heinonline.org/HOL/License>
7. Maria Karagianni "Arbitration in Islamic Middle East and the Saudi Arabia's new arbitration law". January 2014. Available at : <https://api.core.ac.uk/oai/oai:repository.ihu.edu.gr:11544/275>
8. Islom.uz rasmiy veb-sayti. Havola: <https://islom.uz/qomus/1577> (02.11.2024).
9. Mazhab haqida tushuncha. "Xoja Buxoriy" o'rta maxsus islom bilim yurti rasmiy veb-sayti. <https://xojabuxoriy.uz/?p=104&lang=uz>.
10. Saudiya Arabistoni Xalqaro Tijorat Arbitraj Markazi (SCCA) rasmiy veb-sayti: <https://www.sadr.org/?lang=en>
11. Dubay Xalqaro Arbitraj Markazi (DIAC) rasmiy veb-sayti: <https://www.diac.com/en/about-diac/>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.